

OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA SPORT KLUBINI TASHKIL ETISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

Orinov Nematjon Ikramovich
O'ZDJTSU Sport klubi rais o'rinbosari

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalari qoshida sport klubini tuzish orqali talabalarning darsdan tashqari ommaviy jismoniy tarbiya va sport-sog'lomlashtirish tadbirlarini yanada takomillashtirish, iste'dodli yoshlarni saralab olish (seleksiya) va sport turlari bo'yicha terma jamoalari zahirasini shakllantirish masalalarga alohida ye'tibor qaratilgan.*

Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining sport klubi faoliyatini samarali yo'lga qo'yish, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, faollashtirishga hamda uning moddiy-texnik bazasini tubdan takomillashtirish muhim axamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: *ommaviy jismoniy tarbiya, sport-sog'lomlashtirish tadbirlar, iste'dodli yoshlarni saralab olish (seleksiya), sport turlari bo'yicha terma jamoalari zahirasini shakllantirish, moddiy-texnik baza.*

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish ijtimoiy siyosatning muhim yo'nalishlardan bir etib belgilangan. Chunki sport aholi salomatligini mustahkamlash, yosh avlodni sog'lom va barkamol etib tarbiyalash orqali jamiyatda sog'lom turmush tarzini qaror toptiradi.

Yosh avlodni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishga jalb etish, sport turlari bo'yicha iste'dodli sportchilarni tanlash, tayyorlash va mahoratini oshirish, kadrlar tayyorlash, sohaga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va xalqaro aloqalarni kengaytirish, moddiy-texnik bazalarni mustahkamlash hamda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, millat genofondini asrash, oilada, jamiyatda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, sport turida yuqori natija ko'rsata oladigan qobiliyatli, iste'dodli sportchilarni qidirib topish, sport turlarini rivojlantirish hamda ularning ommaviyligini oshirish, iqtidorli sportchilarni saralash va yuqori malakali murabbiylarni tayyorlash, sport inshootlari quvvatidan to'liq va samarali foydalanishni yo'lga qo'yishdan iboratdir.

Shuningdek, Oliy ta'lim muassasalarida barpo etilgan barcha sport inshootlari quvvatidan to'liq va samarali foydalanishni yo'lga qo'yish, jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini ommalashtirish, oliy ta'lim muassasalarida talablarani sog'lomlashtirish va muntazam sport bilan shug'ullanishlari uchun sport seksiyalarini tashkil etish, talabalarning darsdan tashqari bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlari uchun oliy ta'lim muassasalari sport zallarida ular bilan o'tkaziladigan sport tadbirlari va musobaqalar ko'lamini kengaytirish qolaversa, ommaviy sportni umumxalq harakatiga aylantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Shu bois yurtimizda jismoniy tarbiya hamda sportga davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu maqsadda, O'zbekiston Respublikasining 2015 yil 4 sentabrdagi "Jismoniy tarbiya va sportni to'g'risida"gi O'RQ-394-sonli Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 16 iyuldagi "Davlat ta'lim muassasalari huzurida sport klublarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 542-sonli qarorida belgilangan maqsad va vazifalar oliy ta'lim muassasalarida darsdan tashqari jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va ommaviy-sport tadbirlarini rivojlantirishga xizmat qilishga qaratilgan.

Tadqiqoning maqsadi: oliy ta'lim muassasalarining sport klubi faoliyatini samarali yo'lga qo'yishdan iborat.

Tadqiqoning vazifalari: Ommaviy sportni rivojlantirish va iste'dodli yoshlarni saralash (seleksiya) sohasida ta'lim muassasalarining ustuvor vazifalari etib quyidagilar belgilagan:

oliy ta'lim muassasalarida — iste'dodli yoshlarni saralab olish (seleksiya) va sport turlari bo'yicha milliy terma jamoalarini shakllantirish maqsadida keyinchalik respublika va xalqaro sport musobaqalarida olimpiya va milliy sport turlari bo'yicha talabalar sport klublari hamda jamoalarini tashkil etish;

-talabalar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish hamda jismoniy tarbiya va sportni keng targ'ib qilish, ularning muntazam ravishda jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishlari uchun shart-sharoitlar yaratish;

- talabalar o'rtasida sport turlari bo'yicha jamoalar tashkil etish, ular o'rtasida turli sport musobaqalari va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarini xususan "talabalar ligasi"ni tashkil etish orqali iste'dodli yosh sportchilarni aniqlash;

-jismoniy tarbiya va sport jarayoniga mashg'ulotlar o'tkazish uchun malakali trenerlar va mutaxassislarni jalb etish, shuningdek, ilg'or tajribani joriy qilish.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasalarida ayrim kamchiliklarning mavjudligi, talabalarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishlariga shart-sharoitlar yaratib berish hamda talabalar orasida iqtidorli sportchilarni saralab olish hamda sport klublari faoliyatini tizimli yo'lga qo'yishda qator muammolarni vujudga keltirmoqda;

I. Oliy ta'lim muassasalarida "Jismoniy tarbiya" fani darslarini va mazkur fan o'qituvchilari sonini ko'paytirish zarurligi mavjud:

aksariyat OTMlarda "Jismoniy tarbiya" darslari o'qitishning faqat 1 bosqichida haftasiga 2 akademik soat (80 minut)dan o'tkazilmoqda. Dars soatlarining kamligi hisobidan fan o'qituvchilari soni qisqarib ketgan faqat 2 nafardan jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi qolgan;

Oliy ta'lim muassasalarining sport inshootlari sonini oshirish hamda mavjudlarining moddiy-texnik bazasini yaxshilash borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish lozim:

Oliy ta'lim muassasalaridagi (sport to'garaklari va seksiyalari) faoliyati samaradorligini yanada oshirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 16 iyuldagi "Davlat ta'lim muassasalari huzurida sport klublarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 542-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomiga muvofiq, sport to'garaklari ta'lim muassasalarining "jismoniy tarbiya" fani o'qituvchilari

tomonidan jamoatchilik asosida zaruriy sport klublarini tashkil etish choralarni ko‘rish lozim:

Yuqorida qayd etilgan muammolarni bartaraf etish, ta‘lim tizimida talabalar sportini yanada rivojlantirish, talabalarni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb qilish ishlarini samarali tashkil etish maqsadida quyidagilar taklif etiladi:

1. Barcha oliy ta‘lim muassasalarida “Jismoniy tarbiya” fanini dars soatlarini oshirish va oliy ta‘lim muassasalari talabalarni barcha bosqichlariga joriy etish;

2. oliy ta‘lim muassasalari sport klublarini tashkil etish va darsdan tashqari sport to‘garaklari (seksiya) hamda “Universiada” sport musobaqalarida talabalarni ommaviy ravishda ishtiroqini ta‘minlash uchun sport klublarini moliyalashtirish tizimini joriy etish;

3. OTMlarda tashkil etilgan sport klublari faoliyatini samarali yuritish, talabalarni sport to‘garaklari va seksilariga ko‘proq jalb etish, ularni sport musobaqalaridagi ishtirokini munosib rag‘batlantirish, ta‘lim muassasasida mavjud sport inshootlarini saqlash va sport anjomlari bilan doimiy ta‘minlash maqsadida sport klublarining moliyaviy manbasi sifatida har yili talabalar to‘lov kontrakt pullaridan tushadigan mablag‘larning 10 foizini yo‘naltirish;

4. “O‘zbekiston talabalar sporti” assotsiatsiyasining aniq moliyalashtirish manbalari sifatida ixtiyoriy kirish a‘zolik badallari hamda Oliy o‘quv yurtlarini moddiy-texnik bazasini rivojlantirish fondi mablag‘larini belgilashni maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xulosa qilib aytish keraki, oliy ta‘lim muassasalari qoshida sport klubini tuzish orqali talabalarning darsdan tashqari ommaviy jismoniy tarbiya va sport-sog‘lomlashtirish tadbirlarini yanada takomillashtirish, iste‘dodli yoshlarni saralab olish (seleksiya) va sport turlari bo‘yicha terma jamoalari zahirasi shakllantirish, ta‘lim muassasalarining pedagog va boshqa ishchi xodimlarini sportga jalb qilish, shuningdek sport klubi faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, faollashtirishga hamda uning moddiy-texnik bazasini tubdan takomillashtirish muammolarini hal yetis‘hga alohida ahamiyat beris‘h kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2015 yil 4 sentabrdagi “Jismoniy tarbiya va sportni to‘g‘risida”gi O‘RQ-394-sonli Qonuni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 16 iyuldagi “Davlat ta‘lim muassasalari huzurida sport klublarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 542-sonli qarori.

3. Salamov R.S. Sport mas‘hg‘ulotlarining nazariy asoslar. O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zDJTI. Nas‘hriyot-matbaa bo‘limi. 2005 y. 288 b.

4. Матвеев Л.П. Теория и методика физической культуры. -М.: ФИС, Спорт Акедм Пресс, 2008.-544 с.

5. Платонов В.Н. Общая теория подготовки спортсменов в олимпийском спорте. – К.: Олимпийская литература, 1997. -584 с.